


# Qurilish ishlari

**RAQAMLAR:**

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 1580,3 mlrd. so‘m
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 15,9 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 54,2 foiz
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 29,9 foiz

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 1580,3 mlrd. so‘mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil etdi va 2,0 foiz punktga ko‘paydi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 251,4 mlrd. so‘mni yoki 98,0 foizni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foiz punktga kamaydi.



## Qurilish ishlari, mlrd. so‘m



# Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari




Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1522,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 96,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,1 foiz punktga oshdi.






Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi “Bino va inshootlar qurilishi” faoliyat turi bo‘yicha 1067,0 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi, va o‘tgan yilning mos davriga nisba tan 13,3 foiz punktga ko‘paydi. Shuningdek, “Fuqarolik ob‘ektlari qurilishi” faoliyat turi bo‘yicha 195,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, yoki o‘tgan davrga nisbatan 7,9 foizga punktiga kamaydi, “Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari” faoliyat turi bo‘yicha 318,3 mlrd. so‘mga bajarilib, yoki o‘tgan davrga nisbatan 2,4 foiz punktga kamaydi.




Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 1151,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kapital , joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 429,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 12,5 foiz punktga ko'paydi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 6,0 foiz punktga kamaydi.




Hisobot davrida balarilgan qurilish ishlarining yo`qori o`sish sur`ati Nukus (245,1 foiz), Shumanoy (197,3 foiz), Taxtako`pir (164,5 foiz) va Chimboy (162,8 foiz) tumanlarida kuzatiladi.

*Iqtisodiyot faoliyat turlari bo`yıcha qurılısh  ishlari (jami hajmning foizdagi ulushi)*



## Korxona turi boyicha qurilish ishlari.

(Jamiga nisbatan foizda)




Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarininng yo`qori ko`rsatkichlari Qung`irot (77,5 foiz) va Taxiatosh (56,2 foiz) tumanlari bo`yicha kuzatilmoqda.




**Joriy davrda Respublika bo`yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmining katta qismini Nukus shahrida (41,0 foizi), Qung`irot (13,8 foizi) va Tórtkul (8,5 foizi) tumanlarida kuzatilyapdi.**




**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova**

**(0361) 222-75-91**